

XORAZM VOHASIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR VA QADIMIY OBIDALARNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ME‘MORIY TUZILISHI**Mirzayeva Munira Ixomovna***Abu Rayxon Beruniy nomidagi**Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti**Ijtimoiy ish va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi, Mustaqil izlanuvchi**E-mail: mmirzayeva080291@gmail.com**Tel: +998992835161*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm vohasidagi nodir arxitektura yodgorliklarining va tarixiy obidalarining shakllanishi hamda me‘moriy tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, maqolada Xorazm me‘morchiligining boshqa hududlar me‘morchiligidan farqlari va o‘xshash jihatlari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maqbara, ziyoratgoh, sag‘ana, musamman, qorixona, Pahlavon Mahmud, Said Allovuddin, Said Mohro‘yi Jahon, Uch avliyo, Abdol bobo, Shohimardon, Shoh Qalandar bobo, Bikajon bika, Yusuf Hamadoniy, Shayx Muxtor Valiy.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о формировании и архитектурной структуре редких архитектурных памятников и исторических памятников в Хорезмском оазисе. В статье также освещаются различия и сходства хорезмской архитектуры с архитектурой других регионов.*

Ключевые слова: *Мавзолей, святилище, саганах, мусамман, қариксана, Пахлавон Махмуд, Саид Алловуддин, Саид Мохро‘йи Джахон, Уч авлия, Абдол Баба, Шахимардан, Шах Каландар Баба, Бикаджон Бика, Юсуф Хамадоний, Шейх Мухтар Валий.*

Abstract: *This article provides information about the formation and architectural structure of rare architectural monuments and historical monuments in the Khorezm oasis. The article also highlights the differences and similarities of Khorezm architecture with the architecture of other regions.*

Keywords: *Mausoleum, shrine, saganah, musamman, qarixana, Pahlavon Mahmud, Said Allovuddin, Said Mohro‘yi Jahon, Uch awliya, Abdol Baba, Shahimardan, Shah Qalandar Baba, Bikajon Bika, Yusuf Hamadoniy, Sheikh Mukhtar Valiy.*

Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklari nodir arxitektura yodgorligi hisoblanib, u xalq me‘morchiligining o‘ziga xos san‘at va me‘moriy asari hisoblanadi. Vohadagi bu obidalarining ba‘zilari chet el bosqinchilariga qarshi xalqimiz ozodligi yo‘lida jon bergan,

tasavvuf namoyandalari nomi bilan bog‘liq islom olamida mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslar, shuningdek, asosiy qismi islomni tarqatish maqsadida kelgan sahobalar qadamjolari va maqbaralari hisoblanadi. Mazkur obidalarni me‘morchilik san’ati va xalq madaniy merosi sifatida o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Viloyat bo‘yicha 35 ta respublika va viloyat tasarrufidagi ziyoratgoh sifatida faoliyat yuritadigan muqaddas joylar mavjud. Biz quyida ularning tarixiy-me‘moriy shakllanishini ko‘rib chiqamiz.

VII asr arxitekturasiga mansub obidalar. Shayx Qosim Bobo maqbarasi (VII asr, Hazorasp). Maqbara 680–695 yillar mobaynida qurilgan.

XII–XIV asrlar arxitekturasiga mansub obidalar. Shayx Darvesh Muhammad Amin (XIV asr, Xazorasp), Shayx Muhtor Vali (XIV asr, Yangiariq), Said Alovuddin (XIV asr, Xiva).

XV–XVIII asrlar arxitekturasiga mansub obidalar Qironchi bobo (XV asr, Hazorasp) Muzrobshoh Xorazmiy (XVI asr, Hazorasp), Shayx Sharof (XV asr, Ko‘hna Urganch) maqbaralari, Imorat bobo majmuasi. (XVI asr, Qo‘shko‘pir), Uch Avliyo (1549), Yunusxon (1559), Said Shafolat Aziz (1795, Xiva), Usmon Saidbobo (XVI–XIX asrlar, Gurlan), Shovodixo‘ja Bobo (XVII–XVIII asrlar, Urganch), Oq Shayx Bobo (XVII–XVIII asrlar, Xiva), Jon Horos Bobo (XVIII–XIX asrlar, Urganch), Niyasit Bobo (XVI–XIX asrlar, Shovot), Said ota (XVIII asr, Honqa), Obdal Bobo (XVI–XIX asrlar, Xiva), Rahmonquli Aziz (Tanobli) (XVIII asr, Hazorasp) maqbaralari kiradi.

XIX–XX asrlar arxitekturasiga mansub obidalar Shohi Mardon dahmasi (XIX asr, Xiva), Said Mohiro‘y Jahon (1884, Xiva), Sa‘d Ibn Abu Vaqqos (Pitnak) maqbaralari, Doshqin Bobo kompleksi (1827–1828, Urganch sh.), Shayx Odina Muhammad Xorazmiy (XIX asr. Bog‘ot), Voyangan bobo (XVI–XIX asrlar, Shovot), Hazrati Ismoil eshon, Shahid bobo, Shayx Husayin, Hazrati Abul Marjon, Shohpir bobo (XVI–XIX asrlar, Hazorasp), Yusuf Hamadoniy (XIX asr, Shovot) maqbaralaridir.

Keyingi yillarda Respublika hukumati tomonidan madaniy yodgorliklarni asrashga e‘tibor berilmoqda va bu obidalarning katta qismi YuNESKO tomonidan insoniyatning umumjahon madaniy merosi deb tan olingan. Ular Pahlavon Mahmud, Said Allovuddin, Said Mohro‘yi Jahon, Uch avliyo, Abdol bobo, Shohimardon, Shoh Qalandar bobo, Bikajon bika, Yusuf Hamadoniy va Shayx Muxtor Valiy ziyoratgohlaridir. O‘tgan davrlar mobaynida insonlarning mas‘uliyatsizligi tufayli yuzaga kelgan asoratlar ba‘zi tarixiy obidalar devorlarida o‘z izini qoldirgan. Ota-bobolarimizning me‘morchilik madaniyatini guvohi bo‘lgan bu obidalarni asrab-avaylash zarur.

Xorazm vohasidagi arxeologik jihatdan ahamiyatga molik ziyoratgohlar. Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklari o‘zida joylashgan ziyoratgohlar nomi bilan atalgan. Bu esa yodgorlikni paydo bo‘lish tarixi shu mozorda dafn etilgan avliyo bilan bog‘liq deb, mahalliy

xalq orasida “aziz joylarda azizlar yotadi” degan qarashlar mavjud. Xorazm vohasida hozirgi kunga qadar ro‘yxatga olingan 18 ta arxeologik yodgorliklardan 4 tasi muqaddas joy hisoblanadi. Ushbu ziyoratgohlarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. I–VII asrlarga mansub arxeologik yodgorliklar bilan bog‘liq ziyoratgohlar. Oq Shayx bobo (Xiva), Shayx Qosim (Hazorasp).

2. VII–XII asrlarga oid arxeologik yodgorliklar bilan bog‘liq ziyoratgohlar. Shayx Hasan Savroniy maqbarasi (Shovot), Ostona qishlog‘idagi qabriston (Yangiariq).

Xorazm me‘morchiligi boshqa hududlar me‘morchiligidan geografik jihatdan farqlanadi. Chunki vohada yoz juda issiq, qish esa sovuq bo‘ladi. Bunday sharoit me‘morchilikning shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir etgan.

Me‘morchilikda asosan mahalliy materiallardan paxsa, xom g‘isht, sinch (nigirik¹⁶), kichik hajmdagi pishgan g‘ishtdan foydalanganlar. Bezatishda sopol koshinlar, ganchkorlik boshqa hududlarga nisbatan vohada kamroq, ammo yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan. Voha ziyoratgohlarining ko‘pchiligidagi yog‘och ustunlar va eshiklar o‘ziga xos uslubda yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan.

Xorazmda tosh va yog‘och tanqisligi bois qurilishda bu mahsulotlardan kam foydalanganlar. Tosh faqat binolarning fundamentiga, yog‘och ustuni asosiga, poygohlarga, zinalar va hovuzlarga ishlatilgan.

Xorazm vohasi sharoitida ziyoratgohlar o‘ziga xos arxitekturaga ega bo‘lib, qabr ustidagi inshootlar “sag‘analar”¹⁷ deb nomlanadi va bu Xorazm agiologiyasining eng asosiy ko‘rinishlaridan biridir. Vohada aziz avliyolar ruhiga sajda qilish joylariga “mozor” iborasi ishlatilmaydi, chunki bu ibora vohada qabr ma‘nosini anglatadi. Shu sababli muqaddas joylarga nisbatan “avliyo” termini qo‘llanilib, xalq orasida qabriston yoki mozor emas, balki “avliyo bobo” deb, maqbaralarga nisbatan “gumbaz” yoki “buzruk”(tojikcha – bozorg buyuk) termini qo‘llanilgan¹⁸. Voha maqbaralari geografik hudud, iqlim, islomiy urf-odatlar asosida qurilgan bo‘lib, voha maqbaralari bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tabiiy-geografik sharoitidan kelib chiqqan holda vohada yer osti suvlari yaqinligidan go‘rxonalar yerto‘lalarga tushirilmagan. Maqbaralar gumbazlari bir qavatli, peshtoqlar yechimi, ichki va tashqi bezaklari soddaligi bilan ham boshqa hudud maqbaralaridan farqlanadi. Faqat Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi o‘zining hashamdorligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

¹⁶ Синчли деворнинг хоразмча атамаси. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.41

¹⁷ Сағана – Қабр устидаги қурилма, тош; тошдан, пишиқ гиштдан, икки ёни равоксимон қилиб ишланади; кошин, ўйма нақшлар билан безатилади; китоблар ёзилади. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.49

¹⁸ Снесарев Г. Легенды... – С.34

Xiva me‘morchiligida Markaziy Osiyoning boshqa hududlardan farqli ravishda, nabotot tasvirlaridan iborat shakllar qora rang bilan chegaralangan oq bo‘yoqlarda ifodalangan, umumiy muhitning rangi esa hamma yerda moviylicha saqlanib qolgan”¹⁹.

Katta xonalar tomini yog‘ochsiz yopish masalasini Markaziy Osiyo me‘morlari gumbaz shaklida yechishgan. Asosan, ziyoratgohlar maqbaralari murabba²⁰ tarxli, go‘rxona gumbazi musamman (sakkiz burchakli) shaklida, ziyoratxona charxi gumbaz²¹ bilan qoplangan. Maqbara ichkarisi murabba’ tarhli, yuza ravoqlar ichi va gumbaz osti belbog‘lari muqarnas²² bilan to‘ldirilgan.

Ba‘zi maqbaralarga 16 qirrali poygumbaz ustiga baland kulohiy²³ yoki Turkistoniy gumbaz o‘rnatilgan bo‘lib, bu me‘moriy uslub Xorazm me‘morchiligiga xosdir. XI – XIV asrlarga oid maqbaralar, oddiy bezaksiz faqat pishgan g‘ishtdan ishlangan gumbazlari ham kulohiy shaklda bo‘lgan (Shayx Muxtor Valiy, N.Kubro, Faxriddin Roziy). Go‘rxonadagi koshinkor sag‘analar (o‘lchami 2x1,2m, balandligi 1,25m) prizmasimon shaklda bo‘lib, o‘z hashamati bilan ajralib turadi. Voha ziyoratgohlaridagi ko‘pgina sag‘analar sirkor²⁴ dahma hisoblanadi. Sag‘ana qirralari to‘g‘ri burchakli namoyonlarga bo‘linib, zanjira hoshiyalari to‘q ko‘k asosga ishlangan mayda oq islami naqsh bilan qoplangan (Pahlavon Mahmud, Sayid Alovuddin). Ziyoratxona go‘rxonaga nisbatan ikki barobar keng bo‘ladi (Ilova).

Ko‘pchilik majmua sifatida qurilgan ziyoratgohlarda ayvon mavjud bo‘lib, u yer qator yog‘och ustunlar bilan bezatilgan. Xonaqohlar to‘rt tomondan tobodon²⁵ orqali yoritiladi. Tobodonlarga ganchkori panjaralar o‘rnatilgan. Maqbaralarning shift va ichki qismi ganch bilan suvalgan. Barcha maqbaralarda yog‘ochga gul o‘yib ishlangan eshiklari mavjud²⁶. Dahmaning bezatilishi va koshinkorlik uslubi bilan Qo‘hna Urganch ustalari qurgan maqbaralar alohida ajralib turgan. Masalan, “Musulmonlar sharqida eng go‘zal sirkor dahma N. Kubro (XIV asr) hamda Mizdaqxondagi Mazlum Suluv (XVI asr) maqbarasidagi dahma hisoblanadi”²⁷.

XVI – XVII asrlarda me‘morchilikda yangi usullar va shakllar paydo bo‘la boshladi. Obidalar ajoyib bezak va naqshlar bilan pardozlandi. Shuningdek, gumbazlar ko‘k rangdagi sirli koshinlar bilan qoplanishi jihatidan ajralib turadi.

¹⁹ Ўзбекистон ислом обидалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.15

²⁰ Мурабба – (Квадрат) томонлари тенг тўғри бурчак. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.39.

²¹ Чархи гумбаз–асоси доира гумбаз; давра гумбаз. Меъмор олами. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.65

²² Муқарнас–равокли косачалардан устма–уст жойлашиб ташкил топган мураккаб шаклдаги безак тури. Мехроб, тахмон ёки равоқларнинг тепа қисмини ярим гумбаз кўринишига келтиришда кенг фойдаланилади. Тўғри хошия тури шарофа деб аталади. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.40

²³ Кулохий гумбаз–кулох (учли қалпок) шаклидаги гумбаз. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.33.

²⁴ Сиркор–Сир тортиб хумдонда пишитилган буюм(ғишт) сирти. Зоҳидов П. Меъмор олами... – Б.51

²⁵ Тобадон–Эшик дераза тепа сидаги кичик дарча. Зоҳидов П. Меъмор олами... –Б.54

²⁶ Рейимбаев.Ш. Хоразм шаҳарларининг... – Б. 95.

²⁷ Булатова В. Ноткин И. Хива обидалари...– Б.20 .

Me‘moriy yodgorlikning asosi bo‘lgan ziyoratgohlar shaharlarning me‘moriy qiyofasini belgilab bergan²⁸. Ziyoratgohlar - qabriston, maqbara, daxma, xazira kabi joylarni o‘z ichiga oladi²⁹.

Aziz-avliyoning mashhurligiga qarab uning maqbarasi kengayib borgan, bino belgilangan vazifani bajaruvchi xonalardan tashkil topgan. Tillaxona–dahma³⁰ga kirish joyi, ziyoratxona – maqbara (qabr) oldiga maxsus ziyorat uchun mo‘ljallab qurilgan xona³¹, qorixona – qorilar Qur‘on tilovat qiladigan joy, masjid -ziyoratchilar namoz vaqtida Allohga iltijo qiladigan joy, oshxona – ovqat tayyorlaydigan joy. Ba‘zi maqbaralarda zikrxona-masjid, honaqohlar³²da hamma yig‘ilib zikr tushadigan katta xonalar³³ ham mavjud bo‘lgan.

Qorixonalar – ham jamoat joylari sifatida maxsus xonaqohlar va marhum qabri yoniga qurilgan. Ularda o‘lgan kishi ruhiga bag‘ishlab oyatlar o‘qishga yollangan qorilar ibodat qilishgan³⁴.

Qalandarxonala – Xiva va Hazorasp shaharlarida jahongashta sayyohlar – qalandarlar uchun maxsus qalandarxonalar bo‘lgan. Hovlida qalandarlardan tashqari gadoylar, tilanchilar, mayib-majruh, bechoralar ham istiqomat qilishgan³⁵.

Xonaqolar jome masjidlari, maqbaralari, oilaviy qabrlar yaqiniga qurilgan. Chunonchi, Said Alovuddin, Pahlavon Mahmud maqbaralari xonaqolar bo‘lgan, ularda ovoz chiqarib yoki sukut saqlagan tarzda zikr tushilgan, o‘tganlar ruhiga Qur‘oni karim oyatlaridan o‘qilgan, ulug‘lar xotirlangan³⁶ (Said ota, Honqa, Hazoraspdagi Qosimshayx bobo, Ismoil Eshon bobo, Shobbozdagi Shoh Abbas Valiy maqbarasi, Sulton Uvays bobo maqbarasi, Kechirmas bobo maqbarasi, Doshqin bobo).

Arxitektura jihatdan majmua³⁷ (kompleks) sifatida qurilgan ziyoratgohlarga Pahlavon Mahmud, Said Mohiro‘yi Jahon, To‘rt Shabboz va Bikajon bika (Xiva), Ismoil eshon (Hazorasp), Doshqinjon bobo (Urganch sh.), Said ota (Xonqa), Imorat bobo (Qo‘shko‘pir) kiradi. Bu ziyoratgohlar masjid, ba‘zilarida minora, xonaqodan tashkil topgan.

²⁸ Рейимбаев.Ш. Хоразм шаҳарларининг... –Б. 99

²⁹ Шу асар ... –Б.97

³⁰ Дахма – қабр устига ўрнатилган ёдгорлик, сағана, мақбара. Зоҳидов П. Меъмор олами...– Б.23

³¹ Йирик авлиёлар, уламолар, хон ва амалдорлар, а фсоनावий шахсларнинг қабрлари устига қурилган мемро и а л бино – мавзолейдир. Ўша жойда...– Б.27, 70

³² **Хонақоҳ** – 1) Гумбазли катта бино, хона. 2) Масжиднинг кенг ва катта хонаси. 3) Хонақоҳларда зиёратчилар учун жамоатхоналар ва хужралар ҳам шундай аталади. Ўша жойда – Б.59

³³ Ўша жойда... – Б.27

³⁴ Рейимбаев.Ш.С. Хоразм шаҳарларининг... – Б.199

³⁵ Рейимбаев.Ш.С. Хоразм шаҳарларининг... – Б.100

³⁶ Рейимбаев.Ш.С. Хоразм шаҳарларининг ... – Б.100

³⁷ Мажмуа (ансамбль)– маълум бир режа асосда ўзаро мутаносиб қурилган бинолар. Зоҳидов П,Ш. Меъмор олами... –Б.36.

Xorazm vohasi ziyoratgohlarining asosiy qismi arxitektura jihatidan ahamiyatga molikdir. Viloyat bo‘yicha 134 dan ortiq arxitektura va 18 ta arxeologik yodgorlik bo‘lsa, ularning asosiy qismi ziyoratgohlar va maqbaralardir. Shu sababdan muqaddas ziyoratgohlarning tadrijiy holatini tasnif etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxitektura jihatdan ahamiyatga molik ziyoratgohlar. Xorazm vohasidagi mavjud me‘moriy obidalar ichida Said Allovuddin, Pahlavon Mahmud, Uch avliyo bobo, Avliyo Abdolbobo va Xarisbobo (Xiva), Shayx Muxtor Valiy, Ostona bobo (Yangiariq), Usmon Said (Gurlan), Xo‘rozshayx bobo, Doshqinjon bobo, Shahobuddin Xo‘ja bobo (Urganch) kabi ziyoratgohlar alohida o‘rin tutadi³⁸. Chunonchi, vohaning qadimiy shaharlari Xiva, Hazorasp, Honqa va Yangiariq tumanlaridagi XVIII asr oxiri – XX asr boshlariga mansub bo‘lgan masjidlarining asosiy qismi ham aynan muqaddas joylar asosida bunyod etilgan. Shuning uchun ham muqaddas ziyoratgohlarni o‘rganish bir vaqtning o‘zida me‘moriy obidalar tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam beradi. Shu bilan bir qatorda xalqimizning ko‘p asrlik e‘tiqodiy qarash, urf-odat va an‘analari hamda moddiy madaniyati namunalarini o‘zida saqlab kelayotgan ziyoratgohlar me‘morchilikning asriy va an‘anaviy jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan ham keyingi davr me‘morchiligi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Arxitektura jihatidan ahamiyatga molik ziyoratgohlarni qurilish uslubi jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bir xonali peshtoqsiz binolar – Niyositbobo, Qul Avliyo bobo, Shayx Xasan Suryoniy (Shovot) maqbaralari shular jumlasidandir.

2. Bir xonali peshtoq, gumbazli binolar – Valiyonbobo (Shovot), Abdolbobo, Xarisbobo, Uch Avliyo va Pahlavon Mahmud maqbaralari (Xiva), Shahobuddin Xo‘ja bobo (Urganch tum.).

3. Ko‘p xonali binolar – Yunusxon maqbarasi (Xiva) va Xo‘rozshayx bobo (Urganch tum) maqbaralari umumiy to‘rtburchakka ketma-ket joylashgan ikki xonadan iborat bo‘lsa, Ostona bobo (Yangiariq) hamda Usmon Sayyid bobo (Gurlan) maqbaralari to‘rtburchak sahnaga joylashgan, oldi peshtoqli, gumbazli xona va ularning ortida shu kenglikni bo‘lib turuvchi ikki xonali imoratdan iborat³⁹.

Ziyoratgohlarning arxeologik yodgorliklarda mavjudligi, ularni mahalliy aholi tomonidan aziz-avliyolar yashab o‘tgan joy sifatida qarashlari muqaddas joylarni saqlanib qolishi uchun asos bo‘lgan. Shuningdek, maqbaralarning saqlanib qolishiga musulmon davlatlarida bosqinchilarni mozar va maqbaralarni vayron qilishdan qo‘rquvi ham sabab bo‘lgan. Ular

³⁸ Маньковская Л. Булатова В.А. Памятники зодчества Хорезма... – С.79–82.

³⁹ Ўша жойда ... – С.79–80.

faqat ob-havo, yog‘ingarchilik, namgarchilik va qarovsizlikdan buzilgan⁴⁰. Bu esa yodgorliklarni tadqiq etish va ularning tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi e‘tiborga molikki, mazkur yodgorliklar Buyuk Ipak yo‘li shaharlari hududida joylashganligi ham o‘z navbatida aholi yashash punktlarida keyingi ziyoratgohlarni paydo bo‘lishi uchun muhim rol o‘ynagan⁴¹.

Xullas, vohadagi muqaddas joylarning paydo bo‘lishiga mahalliy xalqning mifologik olami, dunyoqarashi va an‘analari hamda geografik muhit o‘z ta‘sirini o‘tkazib turgan. Keyingi yillarda buyuk shaxslarning xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g‘ururni ko‘tarishga, hamda xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida mustaqillik mafkurasini shakllantirishga xizmat qilmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 23 майдаги “Номоддий маданий мерос муҳофазасига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 47-сонли Қарори / www.lex.uz.
2. Агзамова Г.А.- Хиванинг хонлик пойтахтига айланиши ва ривожланишига оид маълумотлар (XVI-XIX аср биринчи ярми) ОНУ, №7-8, 1997, 84-87 б.
3. Мавлонов Ў., Абдувоситова И. Тарихий-маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. –Т.: Академия, 2014. –Б.127.
4. Мадаминов М. Хоразмда қадимий шаҳарсозлик: пойтахт қалъалар ва шаҳарлар, уларнинг қурилиш технологияси тарихи. Т., 2008, - Б. 72
5. Мах-Гахан-Военные действия на Оксусе и падение Хивы М: 1875.
6. Мамбетуллаев М-Хумбуз тепе-керамический центр Южного Хорезма Археология Приаралья. Вып. II, Ташкент. Фан. 1984. с.21-39
7. Мамбетуллаев М.- Разрез крепостной стены Ичан калы. Вестник КК ФАН УзССР. №4. 1989. с.69-72
8. Мамбетуллаев М.- Раскопки оборонительных сооружений Хивы. Вестник КК ФАН УзССР. №4. 1992. с.112-116.
9. Мамбетуллаев М.М., Шамамбетов Б.Ш., Юсупов О.Ю. Кердер маданияты, изертлеулер хэм натижалар. Каракалпакстан мугаллими. №3-4. 1996. 13-19 бет.
10. Мамбетуллаев М., Юсупов Н., Хожаниязов Г., Матрасулов Ш.- Хива по итогам исследования 1984. Вестник КК ФАН УзССР. №3. 1985. с.76-84.

⁴⁰ Машарипова С. Амударё куйи оқими минтақаси халқ меморчилиги. дисс Б.35

⁴¹ Абдулахатов Н. Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида зиёратнинг ўрни... – Б.108.

11. Мамбетуллаев М., Юсупов Н., Хожаниязов Г., Матрасулов Ш.- Хива по итогам исследования. 1985. Вестник КК Фан УзССР. №2. 1986. с.34-40

12. Мамбетуллаев М., Ягодин В.Н.- К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы. II ж. ОНУ. 1986. №8. с. 43-51.